

**Husainova Hilola**

*SamDU filologiya va tillarni o'qitish: 1-kurs talabasi*

**Alimova Dilnoza**

*SamDU 3-kurs talabasi*

**Ilmiy rahbar: Yusupova Orzubonu**

**Annotatsiya:** *Maqolada fonetika va fonologiyaning turlari, o'rganilish sohasi, vokalizm va konsonantizm, nutqning fonetik jihatdan bo'linishi haqida tilshunos olimlarning bir necha ilmiy izlanishlari orqali to'plagan ma'lumotlari yoritilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Fonetika, artikulyatsion, akustik, psixologik, fonologik, diaxronik, vokalizm, konsonantizm, fraza, proklitik elementlar, lingvistik, nutq apparati, akustik filtr, formantlar, akustik rezonator.*

**Абстрактный:** *В статье описываются виды фонетики и фонологии, область изучения, вокализм и консонантизм, а также сведения, собранные лингвистами в ходе нескольких научных исследований о фонетическом членении речи.*

**Ключевые слова:** *Фонетика, артикуляционная, акустическая, психологическая, фонологическая, диахроническая, вокализм, консонантизм, фраза, проклитические элементы, языковой, речевой аппарат, акустический фильтр, форманты, акустический резонатор.*

**Abstract:** *The article describes the types of phonetics and phonology, the field of study, vocalism and consonantism, and the information collected by linguists through several scientific researches about the phonetic division of speech.*

**Key words:** *Phonetics, articulatory, acoustic, psychological, phonological, diachronic, vocalism, consonantism, phrase, proclitic elements, linguistic, speech apparatus, acoustic filter, formants, acoustic resonator.*

Fonetika ( grekcha phone - " tovush " , -tike - " fan " so'zla ridan ) inson nutqini ifoda qilish uchun zarur bo'lgan tovushlar va ularning vositalari haqidagi tilshunoslik sohasidir . Nutq tovushlari va ularning vositalari bo'lgan bo'g'in , urg'u , intonatsiya murakkab va ko'pqirrali xususiyatlar hisoblanadi va shu tufayli to'rt tomonlama o'rganiladi : tovushlarning talaffuzida 1 ) artikulyatsion ( fiziologik ) nutq organlarining xizmati ; 2 ) akustik ( fizik ) fizik tebranishlar natijasidir ; nutq tovushlari va ularning vositalari 3 ) eshitib his etish ( psixologik ) tomoni , ya'ni nutq tovush lari , bo'g'in , urg'u va intonatsiya eshituvchi tomonidan anglab his etiladi ; 1 = 4 ) fonologik ( yoki sotsial , funksional ) jihatdan nutq tovush lari va ularning vositalari tildagi so'zlar , so'z formalari , iboralar va gaplarni bir - biridan farqlash , ularning ma'nosini kengroq ochish uchun zarurdir . Yuqoridagi to'rt tomonlama qarashni ba'zan artikulyatsion fonetika , akustik fonetika ( u ba'zan eshitib his etish tomonini ham o'z ichiga oladi ) va fonologiya

nomlari bilan ham ataladi . Ular nutq tovushlari , bo'g'in , urg'u va intonatsiyani alohida tasnif qilish usullariga ega bo'lib , bir - biri bilan uzviy bog'liqdir . O'zining o'rganish sohasi va vazifalariga ko'ra , fonetika ikki turli bo'ladi : 1 ) umumiy fonetika-jahondagi barcha tillarga xos bo'lgan talaffuz xususiyatlarini o'rganadi ; 2 ) tasviriy fonetika - biror tilga xos bo'lgan talaffuz aloqatlarini o'rganadi . Masalan , rus tili fonetikasi , o'zbek tili fonetikasi kabi . Qo'yilgan maqsadga ko'ra fonetika ikki turli bo'ladi : 1 ) nazariy fonetika -u biror tilning talaffuz aloqatlarini nazariy jihatdan tasnif etadi ; farqli aloqatlarini o'rganish " tillar tipologiyasi " nomi bilan atalib , bu sohaning fonetikaga doir bo'limi qiyosiy - tipologik fonetika yoki qiyosiy - tipologik fonologiya deb ataladi . Masalan , rus , o'zbek va ingliz tillarining qiyosiy - tipologik fonetikasi yoki fonologiyasi kabi . Tildagi tovushlarni yozma ravishda ko'rsatish uchun alohida belgilar mavjud bo'lib , uni transkripsiya deyiladi . Ushbu darslikda Xalqaro Fonetika Assotsiatsiyasi taklif etgan transkripsiya asoslangan belgilardan foydalanildi.Alohida apparatlar yordamida nutq tovushlari , bo'g'in , urg'u va intonatsiyadagi artikulyatsion - akustik xususiyatlarni o'rganuvchi soha eksperimental fonetika deb yuritiladi . Yuqorida ko'rsatilgan fonetika turlarining barchasi kuzatishlar yordamida til talaffuzidagi xususiyatlarni ancha aniq tekshiradigan eksperimental fonetika natijalariga asoslanadi . Fonetikaning nutq tovushlarining hosil bo'lishi va ularning xususiyatlarini o'rganuvchi yo'nalishi segmental fonetika deyiladi . Fonetikaning nutq tovushlaridan katta bo'lgan birliklarni , ya'ni bo'g'in , takt va frazalarni o'rganuvchi yo'nalishi esa super segmental fonetika yoki prosodika deb ataladi . Fonologiya alohida fan sifatida ham qaraladi Bunday qarash fonologiyani ikkiga bo'lishni talab qiladi . 1 ) tovushlarning tildagi funksional tomonlarini o'rganuvchi bo'limi segmental fonologiya yoki fonemika , fonematika deb yuritiladi . 2 ) bo'g'in , urg'u va intonatsiyaning funksional aloqatlarini o'rganuvchi sohasi supersegmental fonologiya yoki prosodika deb ataladi . Fonetika morfologiya va sintaksis , leksikologiya va uslubiyat bilan uzviy bog'liq , chunki tildagi barcha birliklar ( so'z , so'z shakli , so'z birikmalari va frazalar ) tovushlar vositasida namoyon bo'ladi . Fonetika artikulyatsion - akustik xususiyatlarni , ularning hosil bo'lishida nutq organlarining xizmati va fizik tebranishlarni o'rganishda biologiya , fiziologiya , fizika va akustika fanlari bilan ham bog'lanadi . Tildagi fonetik xususiyatlarning tarixiy aspektida o'rganuvchi soha tarixiy ( yoki diaxronik ) fonetika deb ataladi . Bunda tildagi tovushlar sistemasining taraqqiyoti qadimiy obidalar va qo'lyozmalar hamda tarixiy dalillar asosida tadqiq etiladi . 61 Hozirgi davr tilshunosligida jahon tillarining o'xshash va farqli aloqatlarini o'rganish tillar tipologiyasi deb atalib , bu sohaning fonetikaga doir bo'limi qiyosiy - tipologik fonetika yoki qiyosiy tipologik fonologiya deb ataladi . Masalan , rus , o'zbek va ingliz tillarining qiyosiy - tipologik fonetikasi yoki fonologiyasi kabi . Nutq tovushlari talaffuz a'zolarining ma'lum xizmati natijasida hosil bo'ladi . Tovushlarning hosil bo'lishida ishtirok etuvchi nutq a'zolari harakatining yig'indisi artikulyatsiya deb ataladi . Jahondagi barcha kishilarning nutq a'zolari bir xil tuzilgan bo'lsa ham , har bir

tildagi tovushlarning talaffuzida ularning harakati o'sha tilga xos va odatiy bo'lishi mumkin . Biror tilning talaffuzida odat bo'lib qolgan nutq a'zolari odatiy harakatlarning yig'indisi o'sha tilning artikulyatsion bazasi hisoblanadi . Har xil tillar bir - biridan artikulyatsion bazalaridagi ba'zi xususiyatlar bilan farq qilishi mumkin . Masalan , ingliz tilidagi til oldi undoshlari apikal ( lot . arex til uchi ) artikulyatsiyaga ega bo'lsa , o'zbek va rus tillaridagi bunday undoshlarning talaffuzida til uchi tishlarga tegib , uning o'rta qismi ishtirok etadi , ya'ni dorsal artikulyatsiya qilinadi . Tovushlarning talaffuziga ko'ra ingliz va fransuz tillari bir - biridan katta farq qiladi . Ingliz tilidagi lablangan unilarning talaffuzida lablar juda kuchsiz harakat qiladi . Fransuz tilidagi lablangan unilar esa , lablarning kuchli harakati bilan ajralib turadi . Nutq tovushlarning uch tomoni mavjud : 1 ) fiziologik ( talaffuz ) tomoni - nutq tovushlarini insonning nutq a'zolari harakati natijasida hosil bo'lishi ; 2 ) akustik tomoni nutq tovushlarini havoning tebranishi natijasida hosil bo'lishi , shunga ko'ra tovushlarning balandlik , kuch ( tezlik ) , miqdor , tembr kabi belgilarga ega bo'lishi ; 3 ) lingvistik ( vazifaviy , ma'no farqlash ) tomoni - nutq tovushlarini so'z ma'nolarini farqlashga xizmat qilishi . Nutq tovushlarning asosiy xususiyati ma'no farqlashdir , shu jihati bilan ular boshqa tovushlardan farqlanadi . Nutq tovushlari nutq apparatining faoliyati natijasida hosil bo'ladi . Nutq tovushlarini hosil qiluvchi inson a'zolari nutq a'zolari , ularning majmui nutq apparati deyiladi . Nutq tovushlari hosil bo'lishida ishtirok etuvchi quyidagi a'zolar nutq a'zolaridir : o'pka , tovush paychalari , og'iz bo'shlig'i , burun bo'shlig'i , til , kichik til , tanglay , lab , tish , bo'g'iz . Nutq a'zolari nutq tovushlari hosil bo'lishida ishtirok etish darajasiga ko'ra ikki turga bo'linadi : 1. Faol nutq a'zolari : til , lablar va tovush paychalari . 2. Nofaol nutq a'zolari : o'pka , og'iz bo'shlig'i , kichik til , yumshoq va qattiq tanglay , yuqori va pastki tishlar , burun bo'shlig'i , bo'g'iz Insonning nutq apparati to'rt bo'shliqni o'z ichiga oladi : 1 ) bo'g'iz bo'shlig'i , 2 ) burun bo'shlig'i ; 3 ) og'iz bo'shlig'i ; 4 ) bo'yin bo'shlig'i . O'pkadan chiqqan havo bo'yin bo'shlig'iga keladi . Bo'yinning chetlarida tovush paychalari joylashgan bo'lib , ular bir - biriga to'la yoki deyarli to'la jipslashib tegib turishi mumkin . Bu holatda bo'g'iz undoshi hosil bo'ladi , biroq tovush paychalari bir - biriga yaqinlashib taranglashishi va titrashi yoki yaxshi titramasligi mumkin . Tovush paychalarining titrashi davomiy tebranishlarni va bu esa o'z navbatida , asosiy tonni hosil qiladi . Tovushlarning hosil bo'lishida tovush paychalari ko'pincha ishlab turadi . Faqatgina jarangsiz undoshlarning talaffuzida tovush paychalari tebranmaydi . Havo oqimining bo'g'izdan keyingi yo'nalishi yumshoq tanglayning holatiga bog'liq . Agar yumshoq tanglay tepaga ko'tarilsa , u havoni burun bo'shlig'idan o'tishini to'sadi va havo oqimi to'g'ri og'iz bo'shlig'idan o'tadi . Bunday holatda og'iz undoshi ( h ) hosil bo'ladi . Agar yumshoq tanglay pastga tushsa , havo oqimi bir yo'la burun va og'iz bo'shliqlaridan o'tadi . Bu holatda esa , burun undoshlari ( m , n , ng ) hosil bo'ladi . Tovushlarning hosil bo'lishidagi farqlarni bilishda , ayniqsa , og'iz bo'shlig'i va undagi zaruriy tallafuz a'zolar : til , kichik til , qattiq va yumshoq tanglay lablarning harakati hamda holati

katta ahamiyatga egadir . Og'iz bo'shlig'ining katta yoki kichikligi harakat qiluvchi ( faol ) nutq a'zolari va talaffuzda bevosita harakat qilmovchi ( nofaol ) nutq a'zolariga bog'liqdir . Barcha talaffuz a'zolari ichida eng faol harakat qiluvchisi tildir . Uning har xil yon ( gorizontal ) va tik ( vertikal ) harakati natijasida turli shovqin hosil bo'ladi va bu tovushlarning , ayniqsa , unli tovushlarning talaffuzi va eshitilishida turli tonni vujudga keltiradi . Pastki va yuqori lablar ham talaffuzda ishtirok etishi va etmasligi bilan alohida ahamiyatga egadir . Shu tufayli ba'zan ikki lab orasidagi bo'shliqning shakli ham unli talaffuzida hisobga olinadi . Barcha nutq a'zolari va ularning ayrim qismlari o'rtasida ma'lum munosabat mavjud bo'lib , odam talaffuzida bir yo'la bir qancha a'zolarining harakati vujudga keladi . Anatomik jihatdan odam va maymunning talaffuz apparati uncha katta farq qilmaydi , biroq ular o'rtasidagi asosiy farq , fiziologik tomondan , odam nutq a'zolarining aniq va farqli harakati bosh miya orqali bajarilishi bilan izohlanadi . Ton va shovqin tovushlarni farqlash uchun zarur bo'lgan akustik xususiyatlardir . Masalan , unda tovushlar tonga , jarangsiz undoshlar esa shovqinga egadir . Jarangli undoshlar bir yo'la ton va shovqinga ega bo'lib , keyingisini bosib ketadi . Sonor tovushlar ( l , r , m , n , ng ) da shovqin va ton birlikda bo'lib , ton shovqindan ustun keladi . Tovushning cho'ziqligi yoki qisqaligi uning miqdor belgisi deb yuritiladi . Bu tebranish harakatining vaqti bilan aniqlanadi va u millisekund bilan o'lchanadi . Tovushning kuchi , baland yoki pastligi va hokazolar uning sifat belgisi yuritiladi . Tebranish amplitudasi bilan aniqlanuvchi tovush kuchi dinamik urg'uga ega bo'lgan tillar uchun xarakterlidir . Bunda urg'uli bo'g'in urg'usiz bo'g'inga qaraganda katta kuch bilan talaffuz etiladi . Tovushning tembrini tebranish davomida maxsus tonni hosil qilish bilan belgilanadi . U ba'zan nutqda his - hayajonni ifodalovchi akustik belgi sifatida ham qaraladi . qiluvchi bo'shliqlar ( og'iz , burun , bo'g'iz va h.k. ) ma'lum akustik rezona torlar deb yuritiladi , chunki ular o'z shakli va o'lchovi bilan nutq tovushini hosil qiluvchi akustik kanallar vazifasini o'taydi . Tebranish sodda va murakkab bo'lishi mumkin . Akustikada murakkab tovush tebranishining chastotasi bilan boshqa akustik vositalarni kelishtirib turuvchi mexanizm filtr deb ataladi . Odamning og'iz va burun bo'shliqlari unli talaffuzni hosil qiluvchi akustik filtrni tashkil etadi . Tovushning tembrini ifodalovchi va uni boshqa tovushlarni tembridan farqini ko'rsatuvchi chastotalar formantlar deyiladi Formantlar nutq tovushlarining akustik xususiyatlarini bilish manbai hisoblanadi . Tovush formantlari maxsus eksperimental apparat spektrograf yordamida aniqlanadi . Har xil unli talaffuz formantlari ( odatda , ular uchta formantga ega bo'lib , F1 , F2 , F3 deb ko'rsatiladi ) , vertikal shkala bo'yicha turli holatda bo'ladi . Tovushlarning belgilari ularning artikulyatsion xususiyatlari bilan uzviy bog'liqdir . Nutq a'zolarining turlicha harakati nutq tovushlarining akustik belgilarini , ularning sifat va miqdor belgilarini o'zgartirib yuboradi . to'liqlantiradi va tovush hosil bo'ladi va buni biz eshitamiz . Akustika ana shu narsa bilan bog'liqdir . Akustik jihatdan tovushning balandligi , kuchi , tembrini , qisqa yoki cho'ziqligi farqlanadi . Tovushning balandligi tebranishning miqdoriga

bog'liq bo'ladi . Tebranish qancha ko'p ( salmoqli ) bo'lsa , tovush shuncha baland bo'ladi . kuchi tebranishning shiddatiga bog'liq bo'ladi . Tebranish darajasi qanchalik katta bo'lsa , shiddatli bo'lsa , tovush ham shunchalik kuchli bo'ladi . Tovushning kuchi havoning qanday zarb bilan urilishiga qarab har xil bo'ladi . Nutq tovushining tembri ( ya'ni sifati ) asosiy ton bilan qo'shim cha tonlarning ( oberton va rezonator tonlarning ) va shovqinning qo'shilishidan hosil bo'ladi . Tovushning tembri rezonator vazifasini bajaruvchi og'iz bo'shlig'i va burun bo'shlig'ining shakli hamda hajmiga , tovush paychalarida hosil bo'ladigan asosiy tondan tashqari , obertonlarga , shuningdek bo'g'izda hosil bo'ladigan shovqinlar hamda ovozga ham bog'liq . Tovushning cho'ziqlik darajasi tebranish davom etgan vaqt bilan o'lchanadi . Nutq tovushlari artikulyatsion - akustik xususiyatlariga ko'ra har xil tiplarga bo'linadi . Birinchi navbatda tovushlar unli va undoshlarga bo'linadi . Artikulyatsion , akustik va eshitib his etilishi hamda tildagi funksional xizmati jihatdan unli va undosh tovushlar o'rtasida katta farq bor . Artikulyatsion jihatdan unli tovushlar o'pkadan chiqib kelayotgan havoning hech qanday to'siqqa uchramasdan o'tishi aksincha , undoshlar talaffuzida havo oqimining biror to'siqqa duch kelishi bilan izohlanadi . Akustik xususiyatlarga ko'ra unililar talaffuzida havo oqimi kuchsiz tebranishga , aksincha , undoshlar unililarga qaraganda kuchli tebranish va shovqin yordamida hosil bo'ladi . Eshitib his etilishi jihatdan ham undoshlar kuchli shovqini bilan unililardan farq qiladi . Unililar musiqa ohangiga jo'r bo'la oluvchi mayin ohangga egadir . Ko'pincha jahon tillarida undosh tovushlar unililardan ko'proq uchraydi va shu tufayli ularning funksional xizmati ham ko'proqdir . Odatda obyektiv borliqdagi mavjud narsa va hodisalarni har xil guruh va tiplarga tasnif qilinganidek , nutq tovushlari ham artikulyatsion - akustik xususiyat lariga ko'ra bir necha kategoriyalarga bo'linadi . Jahon tilshunosligida unililar majmuini vokalizm ( V ) , undoshlarni esa konsonantizm ( C ) deb atash qabul qilingan . Sof ovozdan hosil bo'lgan tovushlar unli tovushlar , ovoz va shovqinning birikuvidan hosil bo'lgan tovushlar undosh tovushlar hisoblanadi .

Inson nutqi zamon va makonda ketma - ket paydo bo'ladigan kichik va katta birliklardan tashkil topadi . Yuqorida qayd etilganidek , til va nutqda uch asosiy qatlam - fonetika , leksika , grammatika , ( agar grammatika morfologiya va sintaksisga ajratilsa , 4 qatlam ) farqlanib , ular o'z oldiga qo'yilgan vazifaga ko'ra til va nutqni tarkibiy qismlarga ajratadi . Fonologiya va fonetika jihatdan til va nutq to'rt tarkibiy qism : jumla , takt , bo'g'in va tovushga ajraladi . Fonologiya va fonetika ana shu to'rt birlikning til va nutqda tutgan o'rni , turi va xususiyatlarini o'rganadi . Shu bilan birga har qanday nutqni ohangsiz va urg'usiz tasavvur qilib bo'lmagach , mazkur qatlam o'z ichiga bu masalalarni hamda nutq faoliyati bilan bog'liq organlarni o'rganishni ham oladi . Yuqorida aytilganidek , nutq fonetik jihatdan fraza , takt , bo'g'in va nutq tovushlariga ajratiladi . Grammatika ham nutqni tarkibiy bo'laklarga bo'ladi : gap , so'z , so'z birikmasi va morflarga . Garchi har ikki qatlam nutqni miqdor nuqtai nazaridan bir xil bo'lsa ham , sifat jihatdan ular bir - biriga mos kelmaydi . Bu masala

til va nutq birliklari o'rganilayotganda batafsilroq tushuntiriladi . Frazaning nutqning eng katta fonetik birligi bo'lib , ikki tomonidan pauza bilan chegaralanib , o'ziga xos ohangga ega bo'ladi . Masalan : Quyosh tik kelgan . Gulnor cholning chiqib ketishini kutib , devorga qisilgan holda turdi . Shipi past , devorlari yupqa , torgina do ' konxona , har vaqtdagidek ivirsiiq ( Oybek ) . Birinchi gap bitta , ikkinchisi ikkita frazadan tashkil topganligi aniq ko'rinib turibdi . Uchinchi gapda nechta fraza borligini aytish qiyin . Gap shundaki , nutqda frazani ajratish ko'pincha subyektiv sabablarga bog'liq bo'lishi mumkin . Bu gapiruvchi nutqning ravonligi va tezligiga , nutq jarayoni sodir bo'layotgan sharoitga bog'liq . Tez gapiruvchilar bu gapni ikkita frazaga , sekin gapiruvchilar esa to'rt frazaga ajratishlari mumkin.

*Qiyoslang : Shipi past , devorlari yupqa torgina do ' konxona // har vaqtdagidek ivirsiiq . Shipi past , // devorlari yupqa , // torgina do'konxona , // har vaqtdagidek ivirsiiq .*

Shunday ekan , fonetik birlik bo'lmish fraza va grammatik birlik - gap doimo bir - biriga to'g'ri kelmaydi . Gap bitta va undan ortiq frazadan tashkil topgan bo'lishi mumkin . Grammatik birlik bo'lmish gapning o'ziga xos xususiyatlari bor . Gap bo'lishi uchun uning ikki tomonidan pauza bilan ajratilgan bo'lishning o'zi kifoya emas . Gap bir so'zdan yoki bir necha so'zning birikuvidan tuzilgan bo'lishi mumkin . Uning asosiy belgisi - predikativlikdir . Har qanday gap ega - kesimlik munosabatiga ega bo'lishi va bu birlikda doimo grammatik zamon , shaxs va mayl ifodalanishi zarur ( sintaksis qismiga qarang ) . Frazalar taktlardan tashkil topgan bo'ladi . Frazaning ikki kichik pauzasi orasiga joylashgan va yagona urg'u bilan talaffuz qilinadigan bir yoki bir nechta bo'g'inning yig'indisiga takt deb aytiladi . Frazada nechta urg'u bo'lsa , shuncha takt bo'ladi . Havo bulut edi gapida ikkita urg'uli so'z bor : havo va bulut ; uchinchi - urg'usiz . Demak , bu gap ikkita taktdan iborat : birinchisi - havo va ikkinchisi bulut edi . - Odatda urg'u olmagan so'zlar urg'u olgan so'zlarga birikib keladi . Agar urg'u olmagan so'z urg'uli so'zdan oldin turib unga bog'lansa , u tilshunoslikda proklitik elementlar deyiladi . Masalan , ingliz tilida at home , a map birikmalaridagi at va a elementlari proklitikadir . Aksincha , agar urg'usiz so'z urg'uli so'zdan keyin kelib , u bilan bog'langan bo'lsa , u enklitik elementlar deyiladi , yuqoridagi o'zbek tilidan keltirilgan misolda bulut edi birikmasidagi edi enklitik elementdir . Fonetik birlik bo'lmish takt grammatikadagi so'z birikmasi bilan qiyoslansa , ular hech vaqt bir - biriga to'g'ri kelmaydi . Chunki grammatik birlikda urg'uli so'z doimo birdan ortiq bo'ladi . Gap shundaki , so'z birikmasi deganda kamida ikkita mustaqil so'zlarning sintaktik qo'shilmasi nazarda tutiladi . Masalan : xushxo'r qiyom , ko'rkam uy , mustahkam tinchlik va shu kabilar . Takt bo'g'inlardan tashkil topadi . Bo'g'in bir yoki bir necha tovushdan tashkil topib , bir zarb bilan talaffuz qilinadigan fonetik birlikdir , masalan , oilalar so'zida 4 bo'g'in bor . Bo'g'in asosan unli tovushlar bilan bog'langan . Taktda nechta unli tovush bo'lsa , unda shuncha bo'g'in bo'ladi . Bu universal hodisadir . Lekin ba'zi tillarda bo'g'inni sirg'aluvchi , sonor tovushlar ham hosil qilishi mumkin . O'zbek tilida bo'g'in bo'lishi uchun albatta unli bo'lishi kerak . Tillarda bo'g'in tuzilishi

bir xil emas . Tillardagi bo'g'inlarda unli va undosh tovushlarning ketma - ketligiga qarab ham ularni turlarga ajratish mumkin . O'zbek tilida bo'g'in ikki yoki undan ortiq undosh tovushlarning ketma - ket kelishi bilan boshlanmaydi ; unidan keyin ham har bir bo'g'in tarkibida uch yo undan ortiq undosh uchramaydi . Slavyan tillarida bunday hol uchrashi mumkin : ТрНка ( chex tilida ) , мекем ( internatsional so'z ) , cmpen ka ( rus tili ) va hokazo . Bo'g'inlar unli va undosh bilan boshlanib , tugashiga qarab to'rt xil bo'ladi : ochiq , yopiq , berkitilgan va berkitilmagan . Undosh tovush bilan tugagan bo'g'in yopiq bo'g'in deyiladi : mak tab . Bu so'zning ikkala bo'g'ini ham yopiq . Unli tovush bilan tugagan bo'g'in ochiq bo'g'in deyiladi : no - g'o - ra , va - fo va boshqalar . Undosh tovush bilan boshlangan bo'g'in berkitilgan ( yopilgan ) va unli bilan boshlangani esa berkitilmagan ( yopilmagan ) bo'g'in deyiladi : ol - ma so'zining birinchi bo'g'ini berkitilmagan , ikkinchisi esa berkitilgan . Shunday qilib , bo'g'inlar izohlanayotganda ular qanday tovush bilan boshlanishi va qanday tovush bilan tugashi hisobga olinishi lozim . Bu jihatdan bo'g'inlar quyidagi turlarga ajralishi mumkin :

- berkitilmagan ochiq bo'g'in : o - lim ( birinchisi ) ;
- berkitilmagan yopiq bo'g'in : aft ;
- berkitilgan ochiq bo'g'in : da - la ;
- berkitilgan ochiq bo'g'in : da - la ;
- berkitilgan yopiq bo'g'in : daf - tar .

Tovush va tovush vositalari bo'lgan bo'g'in , urg'u , intonatsiya murakkab va ko'p qirralidir . Ular to'rt tomondan o'rganiladi :

- 1) artikulyatsion tomondan - bunda nutq organlarining nutq tovushlarini talaffuz qilishdagi harakati o'rganiladi ;
- 2) akustik tomondan bunda tovushlar va tovush vositalari qanday fizik tebranishlar natijasi ekanligi hisobga olinadi ;
- 3) eshitib his qilish tomoni - bunda nutq tovushlari , bo'g'in , urg'u , intonatsiyaning eshituvchi tomonidan anglab his etilishi tekshiriladi ;
- 4) fonologik jihatdan - bunda nutq tovushlari va tovush vositalarining tildagi so'zlar , so'z formalari , frazalar , gaplarni bir - biridan farqlash , ularning ma'nosini kengroq ochish uchun xizmat qilishi o'rganiladi .

Fonetika tilning tovush tizimini , nutq tovushlarini o'rganadi . Fonetika nutq fiziologiyasini va nutq tovushlarining paydo bo'lishini o'rganadi . Kishilarning tovushi tovush paychalarining tebranishidan hosil bo'ladi . Paychalarning tebranish xususiyatiga qarab ovoz ( un ) yoki shovqin paydo bo'lishi mumkin . Agar tebranish bir tekis , bir maromda takrorlanib tursa , ovoz hosil bo'ladi : a , o , o' , u kabi . Tebranish bir tekis bo'lmasa , shovqin paydo bo'ladi : d , k , sh , ch kabi . Tovushning eshitalishi haqidagi nazariya akustika deyiladi . Fonetika nutqning eng kichik birliklari fonlar bilan shug'ullanadi . Fonlar uchta , ya'ni akustik , fiziologik , ijtimoiy jihatdan o'rganiladi . Nutq tovushlarining akustik xususiyati deganda , ularning fizik xususiyatlari , quloqqa chalinish xususiyatlari tushuniladi . O'pkadan chiqayotgan havo

oqimi tovush paychalarini tebratishi va nutq organlarida hosil bo'ladigan shovqin natijasida nutq tovushlari vujudga keladi . Nutq tovushlarini hosil qilishda ishtirok etuvchi qismlar nutq a'zolari deyiladi . Nutq a'zolarining jami nutq apparatini tashkil etadi . Bular diafragma , o'pka , kekirdak , ovoz paychalari , bo'g'iz , bo'g'iz qopqog'i , kichik til , tanglay , til , tish , labdir . Nutq apparati uch qismdan iborat :

1) Ovoz paychalaridan pastki qism : o'pka , nafas olish yo'llari , kekirdak , diafragma .

2) Bo'g'iz, xalqasimon va qalqonsimon tog'aylar bo'g'izda joylashgan . Bu ikki tog'ay o'rtasida ovoz paychalari o'rnashgan bo'lib , ovoz paychalari harakati bilan tovush paychalari ochilib - yopilib turadi . Natijada shunga muvofiq har xil tovushlar chiqadi .

3) Ovoz paychalaridan yuqoridagi qism : qopqog'i , og'iz bo'shlig'i , burun bo'shlig'i , qattiq va yumshoq tanglay , til , kichik til , ustki va pastki tishlar , ustki va pastki lablar kiradi . Til eng harakatchan a'zodir . U til uchi , til oldi , til o'rtasi , til orqasi va chuqur til orqa qismlariga bo'linadi. Til uchi eng harakatchan organidir. Barcha olimlarimizni fikrlarini ko'rib chiqdik. Abduazizovni kitoblarida fonetika va fonologiya haqida qisqacha ma'lumotlar keltirilgan. Irisqulov, Sharipova va Yo'ldoshevning kitoblarida bu mavzu bo'yicha ko'lab ma'lumotlar mavjud. Fonetika va fonologiyaning ichki qismlarga bo'linishi, o'rganilish sohasi, vazifalari va xususiyatlari, kitoblarning bir-biridan farqli tomonlariga ko'zimiz tushadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1) Abduazizov A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish: Oliy o'quv yurtlarining filologiya fakulteti talabalari uchundarslik- T:"Sharq", 2010-8-9 b.

2) Irisqulov. T. M. Tilshunoslikka kirish: Oliy o'quv yurtlarining filologiya fakulteti talabalari uchun darslik-T: 2022-19-22 b.

3) Sharipova. O'. Yo'ldoshev. I. -2006-22-24 b.